Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24321189

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

The table 1 outlines international practices for business tourism development from 10 countries, focusing on their use of digital marketing and educational technologies. Each practice is analyzed for its potential application in Uzbekistan, offering targeted recommendations to enhance the country's business tourism services.

The integration of international best practices has the potential to substantially enhance Uzbekistan's business tourism sector. Incorporating AI-driven tools, augmented and virtual reality (AR/VR) technologies, cashless payment systems, and targeted digital marketing strategies can elevate service quality and enhance customer satisfaction. Furthermore, the development of comprehensive training programs and the use of digital storytelling can align business tourism initiatives with Uzbekistan's unique cultural heritage and economic aspirations, positioning the country as a competitive hub for business tourism in Central Asia.

By adopting these strategies, Uzbekistan can establish a robust framework for embedding digital innovations and workforce development systems, fostering sustainable and inclusive growth within its business tourism industry.**Conclusion**

The integration of digital marketing and educational technologies holds significant potential for transforming Uzbekistan's business tourism sector. By adopting social media campaigns, SEO strategies, and email marketing, the country can enhance the global visibility of its tourism services. Additionally, investing in digital training platforms will empower employees with modern skills, ensuring high service quality. Learning from international practices, Uzbekistan can position itself as a leading destination for business tourism in Central Asia, boosting its economic growth and global reputation.

References

1. Buhalis, D. (2020). "Technology and Tourism: The Transformation of the Industry." Journal of Tourism Studies, 45(3), 245-260.
2. Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). Marketing Management. Pearson Education.
3. Singh, A., & Sharma, R. (2022). "The Role of Digital Marketing in Business Tourism Development." International Journal of Tourism Research, 24(2), 135-150.
4. United Nations World Tourism Organization (UNWTO). (2021). Digital Transformation in Tourism. Retrieved from www.unwto.org.
5. Smith, M. K., & Richards, G. (2019). The Future of Tourism: Challenges and Opportunities. Routledge.
6. Atoevna, T. S. (2021). Features of the Development of the Tourist Services Market in Uzbekistan. International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development, 3(3), 211-217.
7. Kh, J. K. (2024). CONCEPT OF DIGITAL TWIN TECHNOLOGY. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 45(4), 31-35

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI MODERNIZATSIYA VA BARQAROR RIVOJLANTIRISHNI TA'MINLASH SHAROITIDA FAN, PEDAGOGIKA, TA'LIM VA INNOVATSIYALARNI ASOSIY JIHATLARI

Eshpo'latova Laziza Zafar qizi
CHDPU talabasi
eshpolatovalaziza29@gmail.com

Published: 23.12.2024

Cite this article: Eshpo'latova Laziza Zafar qizi (2024). O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya va barqaror rivojlantirishni ta'minlash sharoitida fan, pedagogika, ta'lim va innovatsiyalarni asosiy jihatlari. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24321189

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekistonning rivojlanishi va iqtisodiy o‘sishining ta’lim va ilm-fan orqali amalga oshirilishini muhokama qiladi. Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash mamlakatning global miqyosdagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Xususiy va davlat ta’lim sektorlarining o‘zaro raqobati va hamkorligi ta’lim sifatini yaxshilash, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga olib keladi. Ta’lim va ilm-fanning rivoji orqali yuqori malakali mutaxassislar, yangi ilmiy kashfiyotlar va texnologiyalar yaratilishi O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy farovonligini oshiradi

Kalit so‘zlar. O‘zbekiston, ta’lim, ilm-fan, innovatsiya, raqobatbardoshlik, iqtisodiy rivojlanish, xususiy sektor, davlat siyosati, inson kapitali, pedagogika, zamonaviy metodlar, yuqori malakali mutaxassislar.

Kirish. Biz O‘zbekistonni rivojlangan mamalakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunda faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor tashabbuskor islohotchi bo‘libmaydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarni tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog‘chadan boshlab oliy o‘quv yurtigavha- ta’limning barcha bo‘g‘inlarini isloh qilishni boshladik.[167] O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirish yo‘lida fan, pedagogika ta’limi va innovatsiyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv sharoitida mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish uchun ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish, ta’lim tizimini zamonaviylashtirish va innovatsion g‘oyalarni joriy qilish eng asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Ta’lim sohasi iqtisodiy modernizatsiya jarayonida asosiy tayanch sifatida xizmat qiladi. Pedagogik ta’lim mazmunini yangi zamonaviy yondashuvlar bilan boyitish, kelajak avlodni ijodkorlik va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari bilan tarbiyalash – bu ta’lim islohotlarining bosh maqsadidir. Ayniqsa, ta’lim muassasalarida innovatsion texnologiyalarni keng qo‘llash va xalqaro standartlarga mos ta’lim dasturlarini joriy qilish orqali iqtisodiyotga yuqori malakali kadrlar yetkazib berish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, fan va ta’limning uzviy bog‘liqligi iqtisodiy modernizatsiya uchun muhim omildir. Ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirish va ishlab chiqarishga jalb etish, startap loyihalar va texnoparklarni tashkil qilish orqali fan-texnika yutuqlarini iqtisodiyotga integratsiya qilish imkonini beradi. Bunda innovatsion g‘oyalar va texnologiyalar asosida iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirish va barqarorlikni ta’minlashning yangi yo‘nalishlari ochiladi. Umuman olganda, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda ta’lim, fan va innovatsiyalar bir butun tizim sifatida xizmat qilishi zarur. Bu tizimning muvaffaqiyatli ishlashi esa har bir fuqaroning faol ishtiroki va zamon talablariga mos fikrlashi bilan bog‘liq. Shu bois, iqtisodiy modernizatsiya yo‘lidagi har bir qadamni puxta rejalashtirish va amalga oshirish mamlakatimizning porloq kelajagini ta’minlaydi.

Muhokama va tahlillar. Istiqbolli kelajak haqida qayg‘uradigan har qanday davlat, avvalo, e’tiborni ilm-fan va ta’lim taraqqiyotiga qaratishi lozim. Bu inkor qilib bo‘lmaydigan haqiqat. Ta’kidlash joizki, aksariyat rivojlangan mamlakatlarda ta’lim, bu-biznes. Ta’lim biznesga aylangandagina raqobatbardoshlik kasb etadi. Shu ma’noda, keyingi yillarda mamalaktimiz ta’lim tizimiga nodavlat va xususiy sektor kirib keldi. Tabiiyki, bu davlat hamda nodavlat ta’lim muassasalari o‘rtasida ijobiy ma’noda raqobat rivojlanishini ta’minlaydi. Ta’limda ham endi bozor qonunlari ishlay boshlaydi. Bozor qonunlari bilamizki, shafqatsiz-unda natija muhim. Natija esa qachonli raqobatbardosh

[167] Yangi O’zbekistonning iste’dodli yoshlari.1-kitob Toshkent “Ta’lim nashriyoti 2020” Shavkat Mirziyoyev.

mahsulot yaratilsagina ijobiy bo‘ladi. Ta’lim xizmatlari bozorida raqobatbardosh mahsulot malakali kadrlar tayyorlash bo‘yicha amalaga oshadi. Ta’lim xizmatlari bozorining mahsuloti inson kapitali hisoblanadi. Inson kapitali esa zamonaviy iqtisodiyotda tobora qimmmati oshayotgan resursdir. Shu bois ta’lim biznesi, bu mavsumiy xarakter kasb etadigan biznes emas, balki brogan sari rivojlanadigan faoliyat turadi [168] Ta’limning biznesga aylanishi va bozor qonunlari asosida rivojlanishi o‘z navbatida yangi imkoniyatlarni va muammolarni yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan, raqobat muhitida ta’lim muassasalari o‘z o‘quv dasturlarini va xizmatlarini doimiy ravishda yangilab borishga majbur bo‘ladi. Bu jarayon esa o‘qituvchilar va professor-o‘qituvchilar malakasini oshirish, ularning zamonaviy bilim va tajribalarini talabalar bilan bo‘lishishiga imkon yaratadi.

Ta’lim muassasalarining faoliyatini boshqarish va ularga moliyaviy qo‘llab-quvvatlash masalalari yangi qoidalarga mos ravishda shakllantirilishi kerak. Bu jarayonda davlat tomonidan yaratilib berilgan me’yoriy hujjatlar va tartib-qoida asosida ta’lim muassasalari o‘z faoliyatini mustaqil ravishda amalga oshirishi mumkin bo‘ladi. Natijada, har bir ta’lim muassasasi o‘z kuchi va imkoniyatlarini rivojlantirishga, o‘z mahsulotini raqobatbardosh qilishga va o‘quvchilarga eng yaxshi bilim berishga harakat qiladi. Biroq, ta’lim sohasida raqobatbardosh mahsulot yaratish uchun nafaqat moliyaviy resurslar kerak, balki ilmiy va pedagogik yondashuvlar ham muhimdir. O‘qituvchilar va professor-o‘qituvchilarning malakasi va tajribasi yangi o‘quv metodikalarini ishlab chiqish va o‘quvchilarga o‘qishning zamonaviy usullarini o‘rgatish orqali ta’lim sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning o‘zini o‘zi rivojlantirishi, ijodiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilish ko‘nikmalari rivojlantirilishi zarur. Ta’lim sohasidagi raqobat ta’limning nafaqat tijorat, balki ijtimoiy manfaatlarni ham o‘z ichiga olishini anglatadi. Inson kapitalining qiymati oshayotgan davrda, yuqori sifatli ta’lim barcha qatlamlardagi yoshlar uchun mavjud bo‘lishi kerak. Bu, o‘z navbatida, jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta’minlaydi va o‘quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga zamin yaratadi. Shuning uchun ta’lim tizimini rivojlantirishda davlat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlik va konstruktiv raqobat muhim ahamiyatga ega. Bu esa mamlakatimizning global miqyosdagi raqobatbardoshligini oshirib, iqtisodiy rivojlanishni tezlashtiradi. Umuman olganda, ta’lim sohasida raqobatni rivojlantirish va ta’limni biznesga aylantirish nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi, balki mamlakatimizning xalqaro maydondagi mavqeyini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shunday ekan, ta’lim sohasida amalga oshirilgan har bir qadam, uning sifati va samaradorligi ta’lim xizmatlari bozorining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi va milliy taraqqiyotning asosiy kalitiga aylanadi.

Ta’lim va fan bugungi kunda nafaqat madaniy, siyosiy va iqtisodiy taraqqiyot omili, balki xalqaro munosabatlar vositasi hamdir. Bu bosqichda yuqori malakali mutaxassislarning istiqbolli ilmiy yo‘nalishlarida axborot almashishi dunyo mamalakatlari yutuqlarining asosiy sharti hisoblanadi. Albatta, ta’lim ilmiy kashfiyotlar sonini bevosita belgilamaydi. Ammo ta’lim tizimi, jamiiyatda ilmiy muammolarni qo‘yish va yechish, olingan natijalardan amalda foydalanish imkonini beruvchi intellektual muhitni yaratadi. Ayni shu sababli ta’lim tizimiga milliy daromadni iste’mol qiluvchi tizim sifatida yondashish o‘rinli bo‘lmaydi, zero bu sohada ilmiy-texnik va ijtimoiy taraqqiyotga zamin yaratiladi. Shu tufayli ham O‘zbekistonda ta’lim tizimini barqarorlashtirish va uning samaradorligini oshirish dasturini ishlab chiqish vazifasining qo‘yilganligi ta’lim mamalakat taraqqiyotining muhim omili ekanligidan dalolat

[168] Xaqning yuragiga yo’l kitibi. Toshkent 2022 Alisher Usmonqulov. Jizzax Politexnika instituti rektori, texnika fanlar doktori, professor. 720-bet

beradi.[169] Ta’lim tizimining samaradorligini oshirish uchun zamonaviy pedagogik metodlar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish kerak. O‘quv jarayonida amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish va o‘quvchilarga muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatini oshirish muhimdir. Bu nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligi uchun ham asos bo‘ladi. Shuningdek, ilm-fan va ta’lim sohasidagi xususiy sektorning rivojlanishi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi lozim. Xususiy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlar innovatsiyalarni tezroq joriy etishga, yangi ilmiy tadqiqotlar olib borishga va yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga yordam beradi. Innovatsiyalar va fan sohasidagi yutuqlar, ayniqsa, yuqori texnologiyalar va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi uchun muhimdir.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yana bir muammoni hal etish ham o‘ta muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professoro‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta’lim olish, ma’naviy-ma’rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur”[170] -deya ta’kidladilar. Pedagoglarning professional darajasini oshirish, maxsus bilimlarini rivojlantirish ta’lim sifatini yuqori darajaga ko‘taradi. Bu borada ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlovchi, o‘qituvchilarni yanada malakali va faol bo‘lishga undovchi muhit yaratish kerak. Bunday sharoit o‘qituvchilarni doimiy ravishda o‘z ustida ishlashga, yangi bilimlar va ko‘nikmalarga ega bo‘lishga rag‘batlantiradi. Natijada, bu ta’lim tizimini yanada rivojlantirib, o‘quvchilar va talabalar uchun sifatli ta’lim va mustahkam qadriyatlarni shakllantirishga olib keladi.

Xulosa: O‘zbekistonning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy o‘sishi uchun ta’lim va ilm-fan sohasining zamonaviylashtirilishi katta ahamiyatga ega. Innovatsion yondashuvlar, zamonaviy pedagogik metodlar va yuqori malakali mutaxassislarning tayyorlanishi davlat va xususiy sektor o‘rtasida ijobiy raqobatni kuchaytiradi va ta’lim sifatini oshiradi. Ta’lim tizimining raqobatbardoshligini ta’minlash uchun ilm-fan va ta’lim sohasidagi xususiy sektorning rivojlanishi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi kerak. Shuningdek, interaktiv va texnologik o‘qitish metodlarini joriy etish, sun’iy intellekt va boshqa ilg‘or texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini oshiradi. Bularning barchasi mamlakatning global raqobatbardoshligini kuchaytirib, iqtisodiy va ijtimoiy farovonlikni ta’minlaydi. Ta’lim va ilm-fanning samarali rivojlanishi milliy daromadning oshishiga va xalqaro miqyosda mamlakatning nufuzining mustahkamlanishiga olib keladi. O‘zbekistonning iqtisodiy o‘sishi va barqaror rivojlanishi uchun ta’lim tizimining sifatli va zamonaviy shakllanishi eng muhim poydevor hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1 Yangi O‘zbekistonning iste’dodli yoshlari.1-kitob Toshkent “Ta’lim nashriyoti 2020” Shavkat Mirziyoyev.

2 Xaqning yuragiga yo‘l kitibi. Toshkent 2022 Alisher Usmonqulov. Jizzax Politexnika instituti rektori, texnika fanlar doktori, professor. 720-bet

3 Yangi O‘zbekistonning iste’dodli yoshlari. 1-kitob Toshkent “Ta’lim Nashriyoti 2020” Oqil Salimov.5-6 bet.

4 Tanqidiy tahlilk,qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak! “Xalq so‘zi” gazetasi 2017-yil 14 yanvar soni

[169] Yangi O’zbekistonning iste’dodli yoshlari. 1-kitob Toshkent “Ta’lim Nashriyoti 2020” Oqil Salimov.5-6 bet.

[170] Tanqidiy tahlilk,qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak! “Xalq so’zi” gazetasi 2017-yil 14 yanvar soni